



Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://doi.org/10.30604/2024.1.6)

Year: 2024 Issue: 1 Volume: 6

Published: 29.09.2024 <https://universaljurnal.uz>

International indexes

GOOGLE SCHOLAR
CROSSREF (OAK BAZA)
ZENODO
OPEN AIRE
EUROPUB
RESEARCHGATE (OAK BAZA)
SJIF



Qoriyev Mirzohid Rustamjonovich

Namangan davlat pedagogika instituti
Tabiiy fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi,
Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Mahammadjanova Rayhona Malikjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti
Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari
yo'nalishi iqtidorli talabasi

Uzbekistan

ATMOSFERA HAVOSI IFLOSLANISHINING INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRI

Abstract: This article contains information about the pollution of the atmosphere with various toxic gases and other waste materials, as well as the fact that this situation has a negative effect on human health and causes various diseases.

Key words: atmospheric air pollution, toxic gases, transport emissions, dust storm, human health.

Annotatsiya: Ushbu maqolada atmosfera havosini turli zaharli gazlar va boshqa chiqindi moddalar bilan ifloslanib borayotganligi hamda ushbu holat inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, turli hildagi kasalliklarni yuzaga keltirayotganligi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: atmosfera havosining ifloslanishi, zaharli gazlar, transport chiqindilari, changli bo'ron, inson salomatligi.

Аннотация: В данной статье содержится информация о загрязнении атмосферы различными токсичными газами и другими отходами, а также о том, что такая ситуация отрицательно влияет на здоровье человека и вызывает различные заболевания.

Ключевые слова: загрязнение атмосферного воздуха, токсичные газы, выбросы транспорта, пыльная буря, здоровье человека.

Language: Uzbek

Citation: Qoriyev, M., & Mahammadjanova, R. (2024). EFFECTS OF ATMOSPHERIC AIR POLLUTION ON HUMAN HEALTH. Universal International Scientific Journal, 1(6), 54–62. Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/1109>

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13890506>

KIRISH. Inson hayot faoliyati uchun eng muhim omillardan biri bo'lgan atmosfera havosini muhofaza qilish, uning sifat ko'rsatkichlarini ekologik normativlarga mosligini ta'minlash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda turli omillar, ayniqsa antropogen omil tufayli atmosfera havosining ifloslanishi kuchayib bormoqda. Insonlarning atmosfera havosiga ko'rsatayotgan ta'siri natijasida yuzaga kelayotgan salbiy jarayonlar oxir oqibat insoniyatning o'ziga, inson salomatligiga jiddiy xavf tug'dirmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, dunyoda har o'n nafaridan to'qqiz nafari ifloslangan havodan nafas olyapti. Yer yuzining 91 foiz aholisi havosi ifloslangan hududlarda yashamoqda. Odamlardagi yurak kasalliklarining 25 foizi, shol kasalligining 24 foizi, o'pka kasalliklari va o'pka saratonining 43 foizi ifloslangan havodan nafas olish natijasida kelib chiqmoqda [14].

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti bergan ma'lumotlarga ko'ra (2014 yilda) har yili havoning ifloslanishi oqibatida dunyo bo'ylab 7 millionga yaqin insonning bevaqt hayotdan ko'z yumadi. Bu ko'rsatkichni 8,8 million nafarga yetganligini so'nggi yillarda (2019 yil) olib borilgan tadqiqotlar isbotlamoqda [1].

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti bergan boshqa ma'lumotlariga ko'ra, Xitoyda atmosfera havosining ifloslanishi bilan bog'lik o'lim ko'rsatkichi har yili 500 ming nafarni, Yevropada esa 430 mingda 800 ming nafargacha deb baholanmoqda [3].

Buyuk Britaniya hukumati azot dioksidi bilan zaharlanish oqibatida mamlakatda yiliga 23,5 ming aholi hayotdan bevaqt ko'z yumushiga sabab bo'layotganligi oshkor qilindi [7].

Ta'kidlab o'tilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, bugungi kunda dunyo miqyosida atmosfera havosining ifloslanganlik holati va uning inson salomatligiga ta'siri yil sayin ortib bormoqda. Bu o'z navbatida atmosfera havosining ifloslanish darajasini doimo monitoring qilib borish, o'zgarishlarni baholash va muhofaza qilish choralarini ko'rish kabi masalalarda tadqiqotlar o'tkazishni talab qiladi.

ASOSIY QISM. So'nggi yillarda atmosfera havosining ifloslanishida antropogen ta'sirning roli keskin ortib ketdi. Ishlab chiqarish korxonalarini, avtomobillar sonining ko'payishi atmosferaga tashlanayotgan tashlanmalar miqdorining ortishiga sabab bo'lmoqda.

O'zbekistonda atmosferaga chiqarilayotgan ifloslantiruvchi moddalarning umumiy miqdori 1991 yildan 2006 yilgacha qariyb ikki barobarga (1991 yil

3,81 mln tonna, 2006 yilga kelib bu ko'rsatkich 1,92 mln. tonnani tashkil etgan) kamaygan bo'lsa, 2010 yildan 2018 yilgacha atmosfera havosiga chiqarilayotgan ifloslantiruvchi moddalar miqdori qariyb 1,3 barobarga ortgan va 2018 yili

2,4 mln tonnani tashkil etgan [14]. 2020 yilda esa atmosferaga chiqarilgan tashlamalar miqdori 2 mln 225 ming tonnani tashkil qilib, 2018 va 2019 yilga nisbatan 7 foizga (155,0 ming va 150,0 ming tonnaga) kamaygan [9]. Ammo, O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasining 2011 yildan 2020 yilgacha bo'lgan davrdagi O'zbekistonda atmosfera havosiga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar miqdori bo'yicha berilgan statistik ma'lumotlar yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlarga nisbatan ancha kam ekanligini ko'rishimiz mumkin (1-jadval). Bu holat chuqur izlanishlar olib borishni va ishonchli ma'lumotlar keltirishni talab etadi.

O'zbekistonda (viloyatlar kesimida) 2011-2020 yillarda atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar miqdori (ming tonna)

1-jadval

	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020
O'zbekiston Respublikasi	788,2	817,6	855,2	1 162,1	975,1	1 008,2	853,5	883,7	952,8	924,4
<i>Qoraqalpog'iston Respublikasi</i>	23,5	19,5	25,8	26,7	32,8	30,6	37,7	34,0	37,2	28,9
viloyatlar:										
<i>Andijon</i>	13,6	12,2	14,4	6,6	18,5	36,7	15,8	15,9	14,3	11,5
<i>Buxoro</i>	71,7	61,7	50,7	51,9	55,6	58,5	63,8	74,8	69,1	37,1
<i>Jizzax</i>	17,3	14,1	17,2	37,2	70,2	63,4	5,2	11,8	4,3	3,4
<i>Qashqadaryo</i>	142,5	163,0	167,0	171,8	176,3	167,9	165,7	152,2	140,4	128,1
<i>Navoiy</i>	45,2	42,4	43,9	42,6	47,0	57,4	44,1	49,9	43,6	48,4
<i>Namangan</i>	5,6	7,0	3,7	3,9	7,8	15,8	15,9	15,2	15,8	15,0
<i>Samarqand</i>	51,8	52,8	49,1	51,3	54,7	51,6	37,2	52,1	44,2	52,7
<i>Surxandaryo</i>	3,3	4,4	3,7	5,8	3,1	3,2	3,2	5,1	6,9	6,5
<i>Sirdaryo</i>	58,7	46,9	35,4	69,3	66,1	68,9	59,6	60,5	47,8	71,8
<i>Toshkent</i>	280,3	290,4	372,3	619,2	370,6	318,7	302,9	336,6	397,9	430,0
<i>Farg'ona</i>	42,8	73,5	40,2	38,4	38,9	103,2	60,1	53,2	49,6	50,5
<i>Xorazm</i>	4,9	4,9	6,2	6,3	5,0	5,2	9,2	7,1	7,2	6,8
<i>Toshkent sh.</i>	27,0	24,8	25,6	31,1	28,5	27,1	33,1	15,3	74,5	33,7

Izoh: mazkur jadval O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlari asosida tuzildi [13]

Mamlakatimiz atmosfera havosining ifloslanishida avtomobil transportidan chiqayotgan chiqindilarning o'rnini benihoya katta hisoblanadi. O'zbekistonda

2 milliondan ziyod (2018 yilda) avtotransport vositalari ro'yxatga olingan bo'lib [10], ularning hissasiga atmosfera havosiga chiqarilayotgan chiqindilarning 65 foizi yoki 1 mln 500 ming tonnadan ortig'i to'g'ri keladi [14]. Yirik shaharlarda, misol uchun Toshkent shahrida bu ko'rsatkich 90 foizni tashkil etadi. Jumladan,


Toshkent shahar ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasining ma'lumotiga ko'ra, 2018 yilda Toshkent shahri havosi 426 tonna zaharli gazlar bilan ifloslantirilgan. Bunda avtotransport vositalari 395 tonna yoki 90 foizlik ulushga egalik qilgan [10]. Namangan shahrida esa bundan ham yuqori ko'rsatkichni tashkil etadi. Jumladan, Namangan shahri havosiga 2019 yilda sanoat va transport vositalaridan jami 17 403 tonna zararli moddalar chiqarilgan bo'lib, shuning 94%i (16 390 tonna) transport vositalari hissasiga to'g'ri kelgan [5, 6, 16, 17].

Avtomobil transportidan chiqadigan chiqindi gazlar tarkibida inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi 200 dan ortiq moddalar – uglerod va azot oksidlari, uglevodorodlar, benzopiren, qo'rg'oshin, og'ir metallar va boshqa birikmalar mavjud. Yer usti qatlamlarida to'plangan ushbu moddalar ultrabinafsha nurlar ta'sirida reaksiyaga kirishib, yanada zararli birikmalarni hosil qiladi.


O'zbekiston atmosfera havosining ifloslanishida sanoat korxonalaridan chiqayotgan chiqindi gazlarning ham o'rni yuqori bo'lib, ma'lumotlarga ko'ra, atmosfera havosidagi tashlanmalarning 924 ming tonnasi (42 foizi) sanoat korxonalarini hissasiga to'g'ri kelmoqda [15].

Mamlakatimiz atmosfera havosining ifloslanish darajasini ortib borishida Orol dengizining qurigan tubidan ko'tarilayotgan chang va tuz zarrachalarini, xususan, keyingi vaqtlarda ko'p martalab kuzatilayotgan changli bo'ronlarning

xissasi ham ortib bormoqda. Ta'kidlash joizki, katta miqdordagi chang va qumlarni bir joydan boshqa joyga ko'chiradigan kuchli (tezligi 10 m/s dan katta) shamollarni changli bo'ron deb yuritiladi. O'zbekistonda changli bo'ronlar Surxondaryo viloyatining Termiz, Jarqo'rg'on, Muzrabod tumanlarida tez-tez sodir bo'lib turadi. Ayniqsa, Termiz tumanida chang bo'ronlari ba'zi vaqtlarda bir sutkadan ortiq davom etadi. O'zbekistonning tekislik hududlarida chang-bo'ronli kunlarning ko'p yillik o'rtacha soni tuproq turi va shamol tezligiga bog'liq ravishda 3-5 kundan 30 kungacha yetadi. Tog'oldi hududlarida chang-bo'ronli kunlar soni yil davomida 10 kundan oshmaydi. Mahalliy shamollar kuchli esadigan hududlar (Yangiyer, Qo'qon, Termiz atroflari) da chang-bo'ronli kunlar soni yiliga 30 kundan ham ortishi mumkin [4].



1-rasm. NASAning Terra sun'iy yo'ldoshidagi o'rtacha aniqlikdagi fotospektrometri (MODIS) tomonidan olingan Toshkentga yaqinlashib kelayotgan qalin changli bo'ronning kosmosurati (tasvir 2021-yilning 4-noyabr kuni olingan) [8].



2-rasm. NASaning Terra sun'iy yo'ldoshidagi o'rtacha aniqlikdagi fotospektrometri (MODIS) tomonidan olingan O'zbekistonning katta hududini egallagan (Toshkent, Jizzax, Sirdaryo va Farg'ona vodiysi) qalin changli bo'ronining kosmosurati (tasvir 2021-yilning 5 noyabr kuni olingan) [8].

So'nggi yillarda mamlakatimizda changli bo'ronlarning soni va xavflilik darajasi ortib borayotganligi kuzatilmoqda. Misol uchun, 2021 yilning 4 noyabr kuni O'zbekistonda changli bo'ron hodisasi kuzatildi (1-2 – rasmlar). Buning natijasida atmosfera havosida chang miqdori keskin ortadi. Xususan, 4 noyabr kuni tunda Toshkent havosida chang miqdori belgilangan miqdordagidan

30 barobargacha ortgan. «O'zgidromet» kuzatuvlariga ko'ra, so'nggi 150 yil ichida O'zbekistonda bunday chang-g'ubor hodisasi kuzatilmagan [11]. Aynan shu kuni, ya'ni, 4 noyabr kuni "Tez yordam" xizmatiga bo'lgan jami chaqiriqlar soni 4082 tani tashkil etib, avvalgi kunga (3 noyabr kuni 3433 ta) nisbatan 649 taga ko'p bo'lgan. Ushbu kundagi chaqiriqlarning 678 tasi bevosita nafas siqishi bilan bog'liq murojaatlardir. 5 noyabrdan 6 noyabr soat 06:00 ga qadar esa "Tez yordam" xizmatiga 4110 ta chaqiriq bo'lgan. Shundan 709 tasi (jami

chaqiriqlarning 17,2 foizi) nafas olishdagi qiyinchiliklar bilan bog'liq murojaatlardir. Qayd etilishicha, murojaatlarning 36 tasi allergik reaksiyalar bilan, 122 tasi esa bronxial astma huruji bilan bog'liq. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi xabar bergan [12].

Umuman olganda, O'zbekiston atmosfera havosining ifloslanish darajasi bo'yicha dunyodagi yetakchi mamlakatlar qatoridan joy olgan. Jumladan, 2020 yilgi havo sifati bo'yicha jahon hisobotida ("IQAir" – havo sifati bo'cha axborot platformasi orqali) havoning PM2.5 mayda dispers zarrachalari bilan ifloslanish darajasiga ko'ra O'zbekiston (PM2.5: 29,9 $\mu\text{g}/\text{m}^3$) 18-o'rinni egallagan (2-jadval) [2]. Havoning PM2.5 mayda dispers zarrachalari deganda, havo tarkibidagi diametri 2.5 mikron va undan kichik bo'lgan havoni ifloslantiruvchi zarrachalar tushuniladi. Ya'ni inson soch tolasi diametri 100 mikron va yuqoridagi PM2.5 zarrachalar inson

soch tolasidan 40 barobarga kichkina. Havoning ifloslanishi 2,5 mikron (PM2.5) zarrachalarning 1 m³ havo tarkibidagi og'irligiga qarab darajalanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining (JSST) ta'kidlashicha, PM2.5 ta'sirining har qanday darajasi sog'liq uchun salbiy ta'sirlardan xoli

bo'lmasa-da, yillik o'rtacha 10 µg/m³ dan past bo'lganda ta'sir xavflarni kamaytiradi.

2-jadval

Dunyo mamlakatlaridagi atmosfera havosining o'rtacha yillik PM2.5 konsentratsiyasi (µg/m³) miqdori [2].

1	Bangladesh	77.1	37	Georgia	20.4	73	Singapore	11.8
2	Pakistan	59.0	38	Algeria	20.2	74	Lithuania	11.7
3	India	51.9	39	Madagascar	20.0	75	Latvia	11.3
4	Mongolia	46.6	40	Kosovo	20.0	76	Senegal	11.2
5	Afghanistan	46.5	41	South Korea	19.5	77	France	11.1
6	Oman	44.4	42	Chile	19.3	78	Austria	10.9
7	Qatar	44.3	43	Ukraine	19.2	79	Curacao	10.5
8	Kyrgyzstan	43.5	44	Guatemala	19.2	80	Spain	10.4
9	Indonesia	40.7	45	Mexico	18.9	81	Germany	10.2
10	Bosnia Herzegovina	40.6	46	Turkey	18.7	82	Japan	9.8
11	Bahrain	39.7	47	Italy	18.5	83	Netherlands	9.7
12	Nepal	39.2	48	Greece	18.4	84	USA	9.6
13	Mali	37.9	49	South Africa	18.0	85	Denmark	9.4
14	China	34.7	50	Peru	17.9	86	Russia	9.4
15	Kuwait	34.0	51	Macao SAR	17.8	87	Portugal	9.1
16	Tajikistan	30.9	52	Turkmenistan	17.0	88	Luxembourg	9.0
17	North Macedonia	30.6	53	Poland	16.9	89	Switzerland	9.0
18	Uzbekistan	29.9	54	Israel	16.9	90	Belgium	8.9
19	Myanmar	29.4	55	Albania	16.0	91	Ireland	8.6
20	UAE	29.2	56	Cyprus	15.8	92	United Kingdom	8.4
21	Vietnam	28.1	57	Romania	15.8	93	Costa Rica	8.2
22	Bulgaria	27.5	58	Malaysia	15.6	94	Ecuador	7.6
23	Iran	27.2	59	Colombia	15.6	95	Australia	7.6
24	Ghana	26.9	60	Hong Kong SAR	15.4	96	Andorra	7.4
25	Montenegro	26.1	61	Slovakia	15.3	97	Canada	7.3
26	Uganda	26.1	62	Taiwan	15.0	98	Iceland	7.2
27	Armenia	24.9	63	Jordan	14.9	99	New Zealand	7.0
28	Serbia	24.3	64	Ethiopia	14.7	100	Estonia	5.9
29	Saudi Arabia	23.3	65	Hungary	14.3	101	Norway	5.8
30	Sri Lanka	22.4	66	Argentina	14.2	102	Finland	5.0
31	Laos	22.4	67	Kenya	14.2	103	Sweden	5.0
32	Ivory Coast	21.9	68	Brazil	14.2	104	U.S. Virgin Islands	3.7
33	Kazakhstan	21.9	69	Angola	13.0	105	New Caledonia	3.7
34	Thailand	21.4	70	Philippines	12.8	106	Puerto Rico	3.7
35	Croatia	21.2	71	Czech Republic	12.3			
36	Cambodia	21.1	72	Malta	11.8			

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, changli bo'ronlar, shaharlar va sanoat hududlaridagi havoning ifloslanishlari bronxial astma, allergik rinit, allergik konyuktivit, tomoq qichishi bilan kuzatiladigan yo'tal, bronxit, bronxlar giperreaktivligi va boshqa nafas yo'li

surunkali kasalliklarini yuzaga chiqarib, aholi salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, nafas yo'llari, turli allergik, saraton, yurak, qon-bosimi bilan bog'liq kasalliklarning avj olishiga olib kelmoqda.

Quyidagi 3-jadvalda atmosfera havosini ifloslantirayotgan zararli gazlar, ularning manbaalari va inson organizmiga ta'siri bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Atmosfera havosini ifloslantirayotgan zararli gazlar, ularning manbaalari va inson organizmiga ta'siri

3-jadval

Moddalar	Kimyoviy tarkibi	Manbalar	Kasalliklar va boshqa oqibatlari
Is gazi	CO ₂	Isitish qurilmalari, sanoat-fabriklar chiqindilari, turli yoqilg'ilarni yonishi, avtotransportlar vositalari va o'rmonlarni yonishi,	0,2% yuqori miqdori o'limga sababchi bo'lishi mumkin. Shuningdek, nafas organlarini shikastlanishi
Metan	CH ₄	Gaz asboblari	Zaharlanish.
Azot oksidlari	N ₂ O, NO, NO ₂	Turli pechlar, plitalar, yong'inlar	O'pka va nafas olish organlarini shikastlanishi, bosh og'rig'i
Tutun		Sigareta chekish	O'pka raki, o'pka va miyaning shikastlanishi
Metilxloridlar	CH ₂ Cl	Turli bo'yoqlar	Asab tuzimi kasalliklari
Trixloretan	C ₂ H ₃ Cl ₃	Aerozol ballonlar	Nafas yo'llari va miyaning shikastlanishi
Tetraxloretan	C ₂ H ₂ Cl ₄	Kiyimlarni kimyoviy usul bn tozalash korxonolari	Asab tizimi, buyrak va jigarlarni shikastlanishi

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, atmosfera havosining ifloslanishi ko'plab kasalliklarning shakllanishiga va o'lim miqdorining ortishiga sabab bo'ladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining hisob-kitoblariga ko'ra, O'zbekistonda havoning ifloslanishidan kelib chiqadigan yillik o'lim darajasi har 100 ming aholi soniga 81,1 tani tashkil qiladi. Aksariyat Yevropa mamlakatlarida ushbu ko'rsatkich 40 dan past, Ruminiya 59,3, Bolgariyada 61,8 ni tashkil etadi. Vaholanki, shu vaqtgacha biz doim aytib kelganmiz, osmonimiz musaffo, tabiatimiz toza deb. Haqiqiy holat esa jiddiy muammo yonimizda,

buni inkor qilish kerak emasligi ko'rsatmoqda [15].

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, Butun dunyoda, jumladan, O'zbekistonda ham atmosfera havosining musaffoligini ta'minlashga qaratilgan zarur tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi. Xususan, mamlakatimizning yirik va sanoati rivojlangan shaharlarida atmosfera havosiga chiqarilayotgan uglerod, azot birikmalari, metan va boshqa gazlar chiqarilishini hamda chang miqdorini bir necha barobar kamaytirish orqali atmosfera havosining sifat ko'rsatkichlarini belgilangan me'yorlar darajasiga keltirish va ularning aholiga salbiy ta'sirini kamaytirish

mumkin. Ushbu maqsadga erishish uchun bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi. Jumladan:

- avtomobil haydovchilari va piyodalarga qulaylik yaratish hamda avtotransport vositalari qatnovini tartibga solib, tirbandliklarni yo'qotish maqsadida shaharlardagi yo'llarda "aqlli" boshqaruvni joriy etish. Ya'ni, aqlli trafik boshqaruv tizimini (Electronic Road Pricing — ERP) joriy etish. Mazkur tizim eng tig'iz vaqtda shahardagi serqatnov yo'llarni boshqaradi, ya'ni kunning muayyan pik vaqtida transport vositalaridan to'lov undiriladi;

- ko'kalamzorlashtirilgan hududlarni, ayniqsa, shahar va avtomobil yo'llari chetida yashil hududlarni kengaytirish. Yirik shaharlar atrofida "yashil qalqonlar" tashkil etish;

- yoqilg'ilar sifatini yanada yaxshilash, ya'ni avtotransport vositalari, ularda ishlatiladigan yoqilg'ining sifati va ekologik ko'rsatkichlariga alohida e'tibor qaratish;

- avtomobillardan atmosferaga chiqayotgan zaharli gazlar miqdori bo'yicha standartlarni joriy

etish, belgilangan standartlarga javob bermaydigan avtotransport vositalari harakatini cheklash;

- ekologik toza transport vositalarini ko'paytirish, shu jumladan, keng jamoatchilik uchun qulay bo'lgan veloyo'lakchalar tashkil etish;

- iqtisodiyotning barcha jabhalarida yashil, ekologik toza, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, texnologik va ma'nan jihatdan eskirgan ishlab chiqarish korxonalarini rekonstruksiya qilish;

- qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni amaliyotga keng tatbiq etish;

- yangi qurilayotgan uylar va binolarni energiya va resurs tejamkor materiallardan foydalanib qurilishini ta'minlash.

Yuqorida ta'kidlangan masalalarga yechim topish orqali respublikamiz atmosfera havosiga chiqarilayotgan zararli gazlar chiqarilishini va chang miqdorini kamaytirishga erishishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Harris, G. (2014): Beijing's bad air would be step up for smoggy Delhi (available at <https://www.nytimes.com/2014/01/26/world/asia/beijings-air-would-be-step-up-for-smoggydelhi.html>).
2. IQAir. 2020 World Air Quality Report *Region & City PM2.5 Ranking*. 2020. – P 41.
3. Keating, J. (2014): New Delhi's air pollution is twice as bad As Beijing's (available at <https://slate.com/news-andpolitics/2014/01/new-delhi-s-air-pollution-is-twice-as-bad-asbeijing-s.html>).
4. Koriyev M.R., Latibov B.O. The negative impact of dust storms on the environment and human economy in Uzbekistan and options to prevent it // "Geografik tadqiqotlar: innovatsion g'oyalar va rivojlanish istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – T., 2021. – B. 106-111.
5. Qoriyev M., Baxtiyorov R. Ozon qatlami, uning yemirilishi, salbiy oqibatlar va muhofaza qilish imkoniyatlari //Journal of Research and Innovation. – 2023. – T. 1. – №. 4. – C. 25-31.
6. Qoriyev M., Olimjonova M., Odilxonov A. Namangan viloyat atmosfera havosining ifloslanib borishi va uni oldini olish imkoniyatlari //Journal of Experimental Studies. – 2024. – T. 2. – №. 2. – C. 19-26.
7. WHO (2012): Children's environmental health (available at https://www.who.int/health-topics/children-environmentalhealth#tab=tab_1).
8. www.earthobservatory.nasa.gov - Dust Blankets Tashkent. November 4, 2021. <https://earthobservatory.nasa.gov/images/149067/dust-blankets-tashkent>
9. www.ecouz.uz - Atmosfera havosini ifloslanishini oldini olish. <https://ecouz.uz/icon/oDS0JowYm4jYya7Cw8QyT8n9ruzaF7Qr>
10. www.gazeta.uz – Toshkent havosini ifloslantirayotgan manbalar ma'lum qilindi. 12 avgust 2019 yil. <https://www.gazeta.uz/oz/2019/08/12/air-pullution/>

11. www.kun.uz – Toshkent havosida chang miqdori me'yordagidan 30 barobargacha ortgani ma'lum qilindi. 5 noyabr 2021 yil. <https://kun.uz/news/2021/11/05/toshkent-havosida-chang-miqdori-meyordagidan-30-barobargacha-ortganligi-malum-qilindi>

12. www.qalampir.uz – “Tez yordam”ga nafas qisishi bilan bog‘liq murojaatlar ko‘paymoqda – SSV. 6 noyabr 2021 yil. <https://qalampir.uz/uz/news/tez-yordam-ga-nafas-k-isishi-bilan-boglik-murozhaatlar-kupaymok-da-ssv-49228>

13. www.stat.uz - O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasining *rasmiy interne sayti*. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/ecology-2>

14. www.uzhurriyat.uz. Ekologik xavfsizlikni ta'minlashga erishamiz. <https://uzhurriyat.uz/2019/12/11/ekologik-xavfsizlikni-taminlashga-e/?lang=lat>

15. www.yuz.uz – Atmosfera havosining musaffoligiga barchamiz mas'ulmiz! 6 sentabr 2021 yil. <https://yuz.uz/uz/news/atmosfera-havosining-musaffoligiga-barchamiz-masulmiz>

16. Кориєв М. Р. и др. Наманган viloyati atmosfera havosining ifloslanishi //География: Природа и Общество. – 2021. – Т. 2. – №. 1.

17. Қориєв М. Р. и др. Ер атмосферасининг тузулиши ва уни зарарлувчи омиллар //Студенческий Вестник Учредители: Общество с ограниченной ответственностью" Интернаука". – С. 68-70.